



ТИҚХММИ

Тошкент Ирригация ва Қишлоқ Хўжалигини
Механизациялаш Муҳандислари Институтини

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ТОШКЕНТ ИРРИГАЦИЯ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ МЕХАНИЗАЦИЯЛАШ
МУҲАНДИСЛАРИ ИНСТИТУТИ**



**“ҚИШЛОҚ ВА СУВ
ХЎЖАЛИГИНИНГ
ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ”**

*мавзусидаги анъанавий XVIII -
ёш олимлар, магистрантлар ва
иқтидорли талабаларнинг илмий
- амалий анжумани*



*XVIII - traditional Republic
scientific - practical conference of
young scientists, master students
and talented students under the
topic*

**“THE MODERN PROBLEMS OF
AGRICULTURE AND WATER
RECOURCES”**

МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ

Тошкент – 2019 йил, 28 – 29 март

МУНДАРИЖА

1 – ШЎББА

Суғориладиган ерларнинг мелiorатив ҳолатини яхшилаш ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш муаммолари

№	Муаллиф (лар)	Мақола номи	Изоҳ
1.	Boirov A., Maxmudova M. - TIQXMMI magistrantlari	G'o'zani "Omad" navini o'tloq-bo'z tuproqlarda parvarishlash agrotexnikasi	18
2.	Alimov B. - TIQXMMI talabasi	Sug'orish va suv chiqarish uchun mahalliy suvlardan foydalanish	20
3.	Baxromova D., To'xtamurodov L., Raxmatillayev I. - TIQXMMI talabalari	Tomchilatib sug'orish tarmoqlari quvurlarning gidravlik hisobi	23
4.	Baxromova D., To'xtamurodov L., Raxmatillayev I. - TIQXMMI talabalari	Ekinlarni sug'orishda zamonaviy suvtejamkor texnologiyalardan foydalanish	26
5.	Erkinov A. - TIQXMMI magistranti	Xo'jaliklararo kanallarning foydali ish koeffitsientini oshirish chora-tadbirlari	28
6.	G'ulomov D. - TIQXMMI magistranti	Sug'orish tarmoqlarini modernizatsiyalash	31
7.	Iroilova S. - TIQXMMI talabasi	Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida drenaj yotqizuvchi mashinalardan foydalanish	33
8.	Ismailov S., Muzaffarova G. - TIQXMMI magistrantlari	Tomchilatib sug'orish tizimini avtomatlashtirishni masofaviy boshqarish	35
9.	Musayev A. - magistrant, TIQXMMI	O'rmon melioratsiyasi, erroziyaga qarshi chora-tadbirlar	38
10.	Mirzayeva X., Sayfiyeva Y., Sultonov M. - TIQXMMI magistrantlari	Surxondaryo viloyatining sho'rlangan yerlarida zovur qurishning zarurligi	41
11.	Nasullayeva Y. - TIQXMMI talabasi	Tomchilatib sug'orish usulini qo'llashda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanishning ahamiyatli jihatlari	43
12.	Nusratov A., Saidmurodov Sh. - TIQXMMI talabalari	Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarning o'rni	45
13.	Omonturdiyeva B. - TIQXMMI talabasi	Avlodlarga qolguvchi boylik	48
14.	Салимов С. - ТИҚХММИ магистранти	Томчилатиб суғориш афзалми ёки гидропоника	50
15.	Shodiyev M. - TIQXMMI talabasi	Tuproqning sho'rlanish sabablari va uni bartaraf etish chora-tadbirlari	53
16.	Tohirov Sh. - TIQXMMI talabasi	Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish muammolari	56
17.	Боиров А., Махмудова М. - магистранты ТИИИМСХ	Особенности капельного орошения садов и виноградников на склоновых землях	59
18.	Пўлатов А. - ТИҚХММИ талабаси	Очиқ ётиқ зовурларни реконструкция параметрларини ҳисоблаш	62
19.	Абдуғаниев М. - талаба, Ҳамзаев Ғ. - магистрант, ТИҚХММИ	Замонавий суғориш усулларини таққослаш	65

EKINLARNI SUG'ORISHDA ZAMONAVIY SUVTEJAMKOR TEHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Baxromova D., To'xtamurodov L., Raxmatillayev I. – talabalar, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda qo'llaniladigan sug'orish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Bu sug'orish usullari orqali yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga erishiladi.

Asosiy qism Yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi, suvni vaqtida ekinlarga berilmasligi oqibatida kam hosilga erishish, suv kamligi yoki noto'g'ri sug'orilishi natijasida yuzaga keladigan muammolarning barchasiga yerlarda ekinlarni ekib qulay bo'lgan sug'orish usulidan noto'g'ri foydalanish oqibatidir.

Har qanday sug'orish usuli tabiiy sharoitga, tuproqning turiga va holatiga bog'liqdir.

Biz suv xo'jaligi melioratorlari ekanmiz, qaysi usulda yerlarni sug'organimizda qancha suv sarfi yoki isrofiga yo'l qo'yishimiz, qaysi usullar mos kelganda qancha hosil olishimizni analiz qilib amaliyotda qo'llab ko'rishimiz mumkin. Eng samarali sug'orish usullaridan biri - tomchilatib sug'orish usulidir.

Tomchilatib sug'orish usuliga hozirgi kunda Respublikamizning har bir viloyatlarida amaliyot olib borilmoqda. Shu bilan birga yer maydonlarini olib bu tizimga o'tish joriy qilinmoqda. Dehqonlarga bir qancha imtiyozlar yaratib berilmoqda. Tomchilatib sug'orishning asosiy maqsadi ekinning ehtiyojiga mos miqdordagi suvni shlanglar yordamida bevosita uning ildiz qatlamiga yetkazib berishga mo'ljallanganligidir. Yana bir muhim tarafi ekinning ildiz qatlamida doimiy bir xil namlik sharoiti yaratiladi va ekinningnoqulay holatga tushishidan bartaraf etiladi. Ekin uchun o'ziga kerakli vaqtda suv va oziq moddalarni olish imkoniyati yaratiladi. Natijada ekin o'z energiyasini faqat hosilini ko'paytirish uchun sarflanadi. Natijada esa, hosildorlik 50-60% gacha o'sadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Paxta xomashyosini yetishtirishda tomchilatib sug'orish tizimini keng joriy qilish uchun qulay sharoit yaratish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora- tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi shunday ekan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy qilishga ko'maklashuvchi ishchi guruhlar namunaviy tarkibda tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi va shu bilan birga 2019-2020 yillarda paxta xomashyosini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish bo'yicha yo'l xaritalari tasdiqlanmoqda.

Hozirgi kunda bu tizimni rivojlantirish uchun Qashqadaryo viloyatida tomchilatib sug'orish tizimi qismlarini ishlab chiqaruvchi yangi korxonalar tashkil etilmoqda. Bunda Vazirlar Mahkamasi Qashqadaryo viloyati hokimligi, Suv xo'jaligi Vazirligi, "O'zbekneftgaz" AJ, "O'z kimyosanoat" AJ bilan birgalikda "O'ltin Yo'l GTL" va "Sho'rtan GKK" MCHJ polimer xomashyosi asosida tomchilatib sug'orish tizimini ya'ni quvurlar, shlanglar, fittinglar, suv saqlash uchun idishlar, suv uzatish uskunasi ishlab chiqarish bo'yicha mavjud quvvatlarni o'rganish asosida iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqib ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga Qashqadaryo viloyatida tomchilatib sug'orish tizimini va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarish bo'yicha yangi taklif kiritildi.

Tomchilatib sug'orishni joriy qilganlarga rag'batlantirish maqsadida byudjet mablag'idan har bir gektar yerga 8 million so'm subsidiyalar berilmoqda yana bu tizimni joriy etish uchun zarur bo'lgan butlovchi qismlar va xom ashyolar 2021-yil 1-yanvargacha bojxona bojini to'lashdan ozod etiladi.

Bu islohotlardan asosiy maqsad- xalqimizning farovon hayot kechirishlaridir.

Hozirgi kunda keng qo'llanilib kelayotgan **tomchilatib** va **tuproq ichidan sug'orish** usullarining afzalliklarini tahlil qilamiz:

t/r	Tomchilatib sug'orish	Tuproq ichidan sug'orish
1.	Tuproqni namlantirish	Tuproqni namlantirish ;
2.	Tuproq yemirilishini oldini olish	Tuproq yemirilishini oldini olish;
3.	O'g'it kiritish	O'g'it kiritish;
4.	Suv tejankorligi(40-50%);	Sug'orish me'yorini 15-40% ga kamligi ;
5.	Suvni filtratsiya va bug'lanishga kamligi;	Suvni bug'lanishga kamayishi (0.98-0.99);
6.	Oqova chiqarmasligi;	Begona o'tlarni chiqmasligi;
7.	Qator oralarini zichlanmasligi, irrigatsiya eroziyasining yo'qligi;	Tuproqni zichlashmasligi, qator orasiga ishlov berilmasligi;
8.	Murakkab rel'eflarda qo'llash mumkinligi;	Hosildorlikni 20-40 % gacha oshishi;
9.	Hosildorlikni 35-65 % gacha oshishi;	
10.	Yerlarni sho'rlanishini oldini olish, begona o'tlarni chiqmasligi;	

Xulosa

Demak, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sug'orish usullari ichida eng qulay va tejimli usul bu- tomchilatib sug'orishdir. Tomchilatib sug'orish orqali nafaqat suv balki ekinlarga beriladigan meniral o'g'itlar, texnika uchun ishlatiladigan yoqilg'i energiyasi ham tejaladi. Ushbu sug'orish usulini Respublikamizdagi ekin maydonlarida keng qo'llash orqali bizning asosiy boyligimiz bo'lgan yerlarimizning meliorativ holatini yanada yaxshilashga va doimiy foydalanishga erishamiz. Axir bobolarimiz bejiz aytishmagan "Yer zar- suv gavhar", deb. Barchamiz ushbu boyliklarimizning qadriga yetaylik!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xamidov M.X., Shukuralayev. X.I., Mamataliyev. A.B. "Qishloq xo'lajigi gidrotexnika melioratsiyasi".T: "SHARQ"2009: 380bet
1. Axmedov X.A. Zax qochirish melioratsiyasi. Toshkent. "O'kituvchi". 1975.-225 bet.
2. Axmedov X.A. Sug'orish melioratsiyasi. Toshkent. "O'kituvchi". 1977.-340 bet.
3. Kostyakov A.N. Основы melioratsii. M."Selxozizdat". 1960. - 624 bet.
- 4.J.U.Yusupov, B.M.Xolbaev "Geologiya va gidrogeologiya asoslari" Toshkent "Yangi asr avlodi"-2003 yil.
5. S.Karimov, A.Akbarov, U.Jonkobilov "Gidrologiya, Gidrometriya va Oshim xajmini Rostlash", "O'zbekiston" nashriyoti-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2004

Ilmiy rahbar

Abduraimova D.